

# Shokir Xoliqov ishtirokida mahorat darsi bo'lib o'tdi



29-sentyabr kuni “Kino, televediniye va radio rejissyorligi” kafedrasida talabalari uchun yosh kinoijodkor Shokir Xoliqov tomonidan mahorat darsi o'tkazildi.



Shokir Xoliqov ayni damda “Kino va televediniye rejissyorligi” mutaxassisligining 2-bosqich magistranti hisoblanadi. Uning “Bizni tushunmaydilar”, “Qiz va bulut”, “Tinchlik. Virus. Odam. “Tabiat”, “Choy”, “Messi” filmlari ko‘plab xalqaro tanlovlar va festivallarda yuqori baholanib, jami ellikdan ortiq gran-prilariga sazovor bo‘lgan.



Birgina “Qiz va bulut” va “Choy” qisqa metrajli filmlari unga 20 ming AQSH dollaridan ortiqroq mablag‘ keltirdi. Qolaversa, Qozog‘istonda o‘tkazilgan ssenariylar festivalida film suratga olish uchun 5 mln AQSH dollari sohibiga aylanib, ushbu mamlakatda faoliyat olib bormoqda. Shokir Xoliqov O‘zbekiston san‘at arbobi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, professor Mahkam Mahammetovning shogirdi hisoblanadi.



Mahorat darsi davomida yosh yigit-qizlar mana shu dargohda tahsil olgan Shokir Xoliqovdan katta motivatsiya hamda kerakli maslahatlarni oldi.